

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 2-bosbisqich talabasi Bo'riyeva Sarvinoz
To'ychiyevna

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodining muhim qismini tashkil etuvchi, marosim va udumlar-to'y dafn marosimlari, bayramlar yoritilib beriladi. Maqolada ushbu marosimlarning turlari, ularning bajarilish tartibi haqida batafsil to'xtalinadi. Tadqiqot davomida folklorshunos, etnografiya va madaniyatshunoslik sohalaridagi asosiy nazariy manbalar, jumladan B.Sarimsoqov A.Mazayev, O.Safarov kabi olimlarning ilmiy fikrlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Marosim folklori, marosim turlari, to'y marosimlari, dafn marosimlari, bayramlar diniy bayramlar, ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlar.

Kirish. Marosimlar va ularning jamiyatdagi o'rni. Marosimlar insoniyat tarixida ijtimoiy-madaniy hayotning ajralmas qismi sifatida shakllanib kelgan. Ular orqali xalq o'z dunyoqarashi, e'tiqod va qadriyatlarini namoyon etadi. O'zbek xalqining marosimlari qadimiy an'analar, urf-odatlar va diniy e'tiqodlar bilan chambarchas bog'liq. Har bir marosim muayyan ijtimoiy vazifani bajaradi va kishilarni birlashtiradi. To'y marosimlari ijtimoiy birlik va qadriyatlar timsoli. To'y o'zbek xalqining eng muhim va tantanali marosimlaridan biridir. U nafaqat ikki yoshning oila qurishi, balki ikki urug'ning, ikki avlodning yaqinlashuvi, sifatida qaraladi. To'yga tayyorgarlik bosqichlari, sovchilarning kelishi, fотиha to'y, nikoh va kelin salom kabi bosqichlar xalq orasida asrlar davomida shakllangan rasm-rusumlar asosida amalga oshiriladi. Bu marosimlar og'zaki ijod namunalari to'y qo'shiqlari, maqollar, duolar keng o'rin oladi. Dafn marosimlari xalqning o'lim borasidagi tasavvurlari, axloqiy qarashlari va ruhiy an'analari bilan uzviy bog'liq. Marhumni yuvish, kafanlash, janoza namozi, ta'ziya va osh berish kabi urf-odatlar marhumga bo'lgan hurmat va ehtirom ifodasidir. Bu marosimlar orqali xalq o'z e'tiqodi va ruhiy birdamligini saqlab qoladi. Bayramlar xalq hayotining ko'zgusi. Bayramlar o'zbek xalqining madaniy merosida muhim o'rin tutadi. Ular yillik davriy marosimlar sifatida milliy o'zlikni anglash, birlik va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Asosiy qism

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki an'ana, odat marosim, tushunchalarining izohi bir biriga bog'liq. Shu bilan birga bir qatorda, an'analarning tarkibiy qismi odat, odatning tarkibiy qismi esa marosimdir. An'ana va odat tushunchalariga nisbatan marosim koproq bayram bilan aloqadorroq deb ta'kidlab o'tadi. Oxunjon Safarov "Ozbek xalq og'zaki ijodi" darsligida [125 -126 b]. B.Sarimsoqov fikrlariga ko'ra o'zbek folklorshunosligida boshqa xalqlar folklorshunosligida bo'lganidek, marosim izchil ilmiy tasnif qilingan emas. B.Sarimsoqovning "O'zbek marosim folklori" kitobida marosim folklori tasnifi masalalariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lsada, aynan o'zbek marosim folklori o'rganilmaganligini, shu davrgacha umuman tasnif qilinmaganligini ta'kidlaydi. Biroq 1974-yilda chop etilgan, M.Alaviyaning "O'zbek marosim qo'shiqlar" nomli monografiyasida o'zbek marosim folkloriga dahldor fikrlar ilgari surilganligi e'tibordan chetda qoldirilgan. T.Mirzayev qayd qilishicha, o'zbek marosim folklori "mavsumiy marosimlar folklori", "oilaviy-maishiy marosimlar folklori" va "diniy -ibodat marosimlari folklori"ga bo'linadi [8,9 -bet]. Shuni alohida ta'kidlamoqchimanki an'ana, odat va marosim tushunchalar bir-biridan ajralmas va o'zaro bog'liq hodisalardir. Mening fikrimcha, bu tushunchalar bir-

birini to'ldiradi hatto ular o'zaro ketma – ketlikda mavjud bo'lib biri ikkinchisining asosini tashkil etadi. Ya'ni, har qanday an'ananing zamirida odat yotadi, odat esa o'z navbatida marosimdan kelib chiqadi. Men bu fikrga shu sababli qo'shilaman chunki marosimlar ko'proq amaliyotda muayyan vaziyatlarda o'tkaziladi, vaqt o'tishi bilan u doimiy odatga aylanadi, odat esa ko'p takrorlana – takrorlana xalqning madaniy xotirasida an'anaga aylanadi. Misol uchun to'y marosimlarida ko'p uchraydigan udumlar bor: kelinning yuzini ochish, kuyovga do'ppi kiydirish – bu avval marosim bo'lgan, hozir esa odat, hattoki an'anaga aylangan. Shu asosida aytmoqchimanki, bu tushunchalar orasida qat'iy chiziq yo'q ular bir tizim sifatida qaralishi kerak. Marosim – odatni tug'diradi, odat esa an'ana sifatida mustahkamlashadi.

Muhokama va natijalar

Tadqiqot davomida ma'lum bo'ldiki, to'y marosimlari, dafn marosimlari va xalq bayramlari nafaqat ijtimoiy hayot tarzining bir qismi, balki xalq tafakkuri va ma'naviyatining ajralmas bo'lagi sifatida shakllangan. To'y oldidan qilinadigan so'rash, elchilik, fотиha, sovchi qo'yish kabi bosqichlari folklor namunalari bilan boyitilgan holda o'tgan. Bu marosimlar bugungi kunda ham mavjud, ammo hozirgi kunga kelib ularning shakli va mazmunini biroz zamonaviylashgan. B.Sarimsoqovning marosimlarga doir izlanishlarida [1957-1964 yillar] ushbu o'zgarishlar chuqur ilmiy tahlil qilingan. Dafn marosimlari esa o'zbek xalqining diniy qarashlari bilan uzviy bog'liq. Islom dini qabul qilingan davrdan boshlab dafn marosimlari Qur'oniy an'analar asosida shakllangan. Biroq bu marosimlarda islomdan avvalgi qadimiy urf – odatlarning izlari hamon ko'zga tashlanadi. Misol uchun "jo'natuv" qo'shiqlari yoki marhumning oxirgi marta kuzatish paytidagi yig'ilar bugungi kunda ham ayrim mintaqalarda saqlanib qolgan. Bayramlar ayniqsa navro'z, hayit bayramlari–xalqning dunyoqarashi hosildorlikka, ishonchi, bilan bog'liq bo'lgani holda vujudga kelgan. Navro'z bayrami tarixiy manbalarga ko'ra [Zardushtiylik davrida] xalq tafakkurining eng qadimiy shakllaridan biri hisoblanadi. Sovet davrida [1920 – 1980 yillar] bu bayramlar mafkuraviy sabablarga ko'ra to'sqinliklarga uchragan bo'lsa-da, 1991 yilda mustaqillik qayta tiklangach ular yana milliy maqomga ega bo'lib, xalq hayotining muhim qismiga aylandi. Mening fikrimcha, hozirgi kunda marosim va udumlar shaklan zamonaviylashgan bo'lsada ularning ma'naviy va tarbiyaviy mazmuni saqlanib qolgan. Biroq ayrim hollarda ular faqat tashqi ko'rinishdagina takrorlanmoqda, ichki mazmuni esa yoddan chiqmoqda. Masalan: to'y marosimlari ko'p hollarda rasmiyatchilik yoki poygaga aylanmoqda. Bu bilan nima demoqchiman, marosimlarning asl mohiyatidan chiqib ketmoqdamiz faqat tashqi ko'rinishga bor e'tiborimizni qaratmoqdamiz an'anaviy qadriyatlarimizni chuqur anglamasdan ish ko'ryabmiz. Bu holatlar esa marosimlarning asl maqsadini ya'niy oila qurish, jamiyatdagi birlik va hamjihatlikni mustahkamlash kabi qadriyatlarni soya ostida qoldirib, ularni faqatgina tashqi ko'rinishga aylantiradi. Shuningdek, M.Alaviya : O'zbek to'y marosimlarining qadimiyligi va ularning xalq hayotidagi o'rni haqida so'z yuritadi M.Jo'rayev : O'zbek marosim folklorining o'rganilishida katta hissa qo'shgan. U "Oy oldida bir yulduz" nomli asarida o'zbek xalq marosim qo'shiqlari haqida so'z yuritadi. Zamonaviy hayot tarzining o'zgarishi bilan ba'zi an'anaviy bayramlar o'zining asl mohiyatini yo'qolib borilayotgani kuzatilmoqda. Bu holatni oldini olish uchun yosh kelajak avlodlarimizni milliy bayramlarga, marosimlarga qiziqtirish muhimdir.

Adabiyotlar tahlili

1. Muzayyana Alaviya o'zbek folklorshunosligining yetuk vakillaridan biri bo'lib, uning "O'zbek xalq marosim qo'shiqlar" nomli asari 1974-yilda Toshkentda nashr etilgan. Ushbu asar o'zbek xalqining marosim qo'shiqlari bo'yicha yozilgan. Asarda marosim qo'shiqlari xususan to'y

motam, mehnat va mavsumiy marosimlar bilan bog'liq qo'shiqlarning ijtimoiy hayotdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi.

2. Bahodir Sarimsoqov o'zbek marosim folklorini keng qamrovda o'rgangan. U marosim folklorini mavsumiy marosimlar va oilaviy marosimlar va ijtimoiy marosimlar, kabi turlarga ajratgan. Sarimsoqov marosimlarning tarixiy ildizlari, ularning shakllanishi va rivojlanishi jarayonlarini tahlil qiladi. Marosimlarning ijtimoiy ahamiyati: Har ikki muallif marosimlarning jamiyatdagi o'rnini, ularning ijtimoiy funksiyalarini yoritiladi. Farqli jihatlari esa Alaviya asosan marosim qo'shiqlarining janrlari bo'yicha tasnifiga e'tibor qaratgan bo'lsa, Sarimsoqov marosim folklorini kengroq doirada, ya'ni marosimlarning turlari va ularning tarixiy rivojlanish nuqtai nazaridan o'rganadi. Alaviya.M. [1974]. Ozbek xalq marosim qo'shiqlari: Toshkent Fan nashriyoti 168 b. Ushbu monografiyada M. Alaviya o'zbek xalq qo'shiqlarining turlari, ularning badiiy xususiyatlari va ijtimoiy ahamiyati haqida tadqiqot olib borgan. Sarimsoqov B. [1968]. O'zbek marosim folklori. Toshkent: Fan nashriyoti. 200 b. B. Sarimsoqovning bu asarida o'zbek marosimi folklorning janrlari, va ularning kelib chiqishi, funksiyalari va poetic xususiyatlari chuqur tahlil qilingan.

Xulosa

O'zbek xalqining marosim va udumlari nafaqat qadimiy an'analarni saqlab qolish, balki bizning kundalik hayotimizda ham o'z aksini topadi. To'y yoki dafn marosimlarida, har bir tafsilot o'zining chuqur ma'nosi bilan alohida ahamiyatga ega. Bu an'alar har biri bizni birlashtiradi, ajratib turadigan holat emas, balki hamjihatlik va o'zaro hurmatni oshiradi. Shuni ta'kidlashim mumkinki, ushbu marosimlar orqali biz faqatgina o'tmish bilan bog'lanmaymiz, balki hozirgi zamon va kelajak uchun ham ko'plab qimmatli qadriyatlarni o'rganamiz. Xalq an'analari bizni insoniylikni unutmaslikka, o'z ildizlarimiga sodiq qolishga va ulkan tarixiy madaniyatni yanada rivojlantirishga ilhomlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alaviya M. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari T. Fan 1947.
2. Jo'rayev M. Navro'z bayrami .T. Fan .2009.
3. Ismoilov Hayot . O'zbek to'ylari .T. O'zbekiston 1992.
4. Mahmud Sattor. O'zbek marosim folklori .T. Fan 1953.
5. Sarimsoqov. B. O'zbek marosim folklori .T. Fan 1986.
6. Oy oldida bir yulduz. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari .Nashrga tayyorlovchi M. Jo'rayev T. Fan. 2000
7. To'y muborak yor – yor. O'zbek nikoh to'yi xalq qo'shiqlari. To'plovchi va nashrga tayyorlovchi O. Safarov. T. Ma'naviyati 2000.
8. O'rayev. D. O'zbek motam marosimi folklori T. Fan .2004.
9. Qizil gulning g'unchasi. Kelin salomlar. To'plovchi va nashrga tayyorlovchilar M. Jo'rayev va O. Ismonova. T. Fan. 1999.